O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA
VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60-60220400
11.09 2024yil
“ ” 2024 yil

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
“ ” 2024 yil

Arxeologiyaga kirish
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	**200000 – San’at va gumanitar fanlar**
Ta’lim sohasi:	**220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60220400 – Arxeologiya**

Samarqand 2024

Fan/modul kodi AK1104	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1. Fan nomi Arxeologiyaga kirish		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
		52	68	120

2.

Fanning maqsadi (FM)

FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda “Arxeologiyaga kirish” faninin shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o‘rganishdagi o‘rni, jaho hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi v xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko‘nikma va malak shakllantirishdir. Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yich bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentlig Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga dala arxeologil tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo‘yicha to‘la qonli bilim ko‘nikmasig ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga o‘z mazmuni bilan xizmat qiladi. **Fanning vazifasi** – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarin shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi dav tarixini yoritishdagi o‘rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologil yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo‘rg‘onlar majmualari, dini inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog‘lik inshootlar v majmualarini o‘rgatishdan iborat.

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)

M1	**Arxeologiyaga kirish fanining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob’ekti.** Ma’lumki, arxeologlar yodgorliklarni qazib o‘rganish jarayonida turli-tuman manbalarga duch keladilar. Bu manbalardan ilmiy foydalanish uchun arxeologlar birinchi navbatda, topilmalarni avaylab yerdan olish, uni qotirish (konservatsiya) va qayta ta’mirlash (restavratsiya) hamda boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Arxeologik topilmalarni qazib olish va ularga ishlov berish usullari bilan talabalarni tanishtirish bu maxsus kursning asosiy vazifasidir. Bu usul maxsus laboratoriyalar tomonidan ishlab chiqiladi va doimo takkomillashib bormoqda. Talabalar bu maxsus kurs davomida olgan bilimlarini kurs ishi yozish davomida mustahkamlab boradilar. Ular chizmalar chizish, topilmalarni ta’riflash, kartochkalar tayyorlash, ilmiy

		olish usullari bilan tanishib o'zlarining mustaqil ishlarida ulardan amalda foydalanadilar. Hozirgi kunda O'zbekiston arxeologiyasi qo'lga kiritayotgan kashfiyot, yutuqlar borasida mukammal bilim berish, bunda xorijning yirik ilmiy markazlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalariga tayanish ko'zda tutiladi. Antropogenez jarayoni, farg'ona odami, obirahmat odami ahamiyati, va keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlari jamoalari moddiy madaniyati, shaharsozlik madaniyati, o'zbek davlatchiligi tarixi, xususan qadimgi sivilizatsiyalarimiz mazmun, mohiyati va ahamiyati borasida mukammal ma'lumot berish, magistrantlarda bu haqida bilim ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. B.V.Farmakovskiy (1870-1928) Olviya qazishmalarini diqqat bilan kuzatar ekan, birinchi marta har qaysi qatlamga alohida e'tibor berish kerakligini, ayniqsa mozor-qo'rg'onlarni qazish davomida avval ustki qismidagi tuproq uyumini to'liq ochib, keyin pastki qatlamlarni qazish kerakligini tushunib yetdi.

2-Mavzu O'zbekistonda Arxeologiya fanining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

Chor Rossiyasi ofitserlarining amalga oshirgan qazishma ishlari. XIX asrning oxirida rus o'lkashunoslarining dastlabki izlanishlari, amaldorlari va harbiylarining qazishmalari. V.V. Veselovskiyning Toshkent vohasida amalga oshirgan qazishma ishlari. Turkiston xavaskorlar arxeologik to'garagining tashkil etilishi O'rta Osiyo arxeologiyasining o'rganishga bo'lgan dastlabki qadam. R.Pampelli G.Shmitdlarning Anovtepada olib borgan qazishma ishlari. Vyatkinning Ulug'bek abservatoriyasini o'rganishi. TAKE faoliyati. XAEE faoliyati. O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining tashkil etilishi. YUTAKE faoliyati unda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasi tadqiqotlarining ahamiyati. O'SE faoliyati. KATE tashkil etilishi. 20 asr 70-90-yillarida arxeologiya tadqiqotlarining yangi bosqichi.

3-Mavzu Arxeologiyaning tarmoq fanlari

Paleantropologiya va arxeologiya. Etnografiya ma'lumotlaridan ibtidoiy davr tarixini o'rganishda foydalanish. Qadimgi tarixni tadqiq etishda lingvistika ma'lumotlarining o'rni. Sfragistika, epigrafika, numizmatika arxeologiya fanining tarkibiy qismi sifatida.

4-Mavzu Arxeologiyada aniq fanlar

Antropogen (to'rtlamchi davr) arxeologiyasini o'rganishda geologik fanining ahamiyati.

Pleystotsen davri qatlamlari va ularning paleolit davrini o'rganishdagi ahamiyati. Paleoekologiya va arxeologiya. Paleozalogiya va paleobotanika fanlari yutuqlaridan ibtidoiy davr faunasi va florasi va xo'jalik xususiyatlarining o'rganishning ahamiyati. Cheksiz (absolyut) davrlashtirishda ximiya va fizika fanlarining o'rni. Matematik statistika va arxeologiya.

5-Mavzu Arxeologiyada tabiiy fanlar

Paleantropologiya va arxeologiya. Etnografiya ma'lumotlaridan ibtidoiy davr tarixini o'rganishda foydalanish. Qadimgi tarixni tadqiq etishda lingvistika ma'lumotlarining o'rni. Sfragistika, epigrafika, numizmatika arxeologiya fanining tarkibiy qismi sifatida.

6-Mavzu Arxeologiyada texnologik kashfiyotlar

Kishilik jamiyatining moddiy madaniyati evolyutsiyasida paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davri, ilk temir davri, antik davr, o'rta asrlar davrlarida qilingan texnologik kashfiyotlar va ularning mohiyatini xarakterlash. Qurol yasashni bilishi (tosh, suyak, daraxt navdasi). Tiplari. Evolyutsiyasi. Ho'jalik ishlaridagi texnologik kashfiyotlar. Tiplari. Evolyutsiyasi. Qurilish ishlaridagi texnologik kashfiyotlar va boshqalar. Tiplari. Evolyutsiyasi.

7-Mavzu Arxeologik yodgorliklar va ularning tarixni o'rganishdagi ahamiyati

Geologik, yerning shakllanish davri bo'lgan uchlamchi va to'rtlamchi davr qatlamlarida uchraydigan paleozoologik, paleobotanik topilmalar. Toshga aylanib ketgan akula, kit, fil kabi yirik hayvonlar qoldiqlari. Tog'larda chag'onoqlar, cho'llarda akula qoldiqlarining topilishi.

Paleolit davri yodgorliklari, qadimgi qabr va qo'rg'onlar, qishloqlar, harbiy istehkom, ibodatxonalar, mudofaa devorlar, shaharlar, yo'llar, karvonsaroylar, sardobalar, hammomlar, ko'priklar, bozorlar (tim), ov qopqonlari, yer osti inshootlarining (chillaxonalar) tarixni o'rganishdagi ahamiyati.

8-Mavzu O'rta Osiyo xalqlari paliolit va mezolit davri moddiy madaniyati evolyusiyasi haqida umumiy tushuncha

Tosh davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan zamon bo'lib, moddiy manbalar va arxeologik yodgorliklar topilgan joylar nomiga qarab, alohida bosqichlar va madaniyatlarga bo'linadi. Qadimgi tosh davri – paleolit tarixi bilan antropogenez – odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi muammosi bog'lanadi.O'rta Osiyo hududida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklari.(Paleolit davridan ilk temir davrigacha) Yangilik kuzatilgan yodgorlik. Davriy sana. Antik davr. Moddiy madaniyatning rivojlanishida ellinizmning ta'siri. Grek yozuvining tarqalishi, Yunon tangalarining ta'siri, kulolchilikdagi

o‘zgarishlar, Haykaltaroshlikning rivojlanishi. Moddiy madaniyatda ko‘chmanchi va mahalliy madaniyatning aralashuvi, simbiozimining kuchayishi. Buddizmning tarqalishi. Moddiy madaniyatdagi o‘zgarishlar. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoga turkiy xalqlarning kirib kelishi natijasida moddiy madaniyatdagi o‘zgarishlar.

9-Mavzu O‘rta Osiyo xalqlari neolit va eneolit davri moddiy madaniyati evolyusiyasi haqida umumiy tushuncha

Neolit (neo... va yun. lithos — tosh) — yangi tosh davri, tosh davrining so‘nggi bosqichi. Osiyo va Yevropa mintaqalarida qayd etilgan va qazib o‘rganilgan. Neolit davri osori atiqalarining aksariyati mil. av. 6—3-ming yilliklar bilan sanaladi. Tosh davrining bu yangi bosqichi qariyb 3 ming yil davom etgan. Neolit davrida odamzodning turmush tarzi va iqtisodiy hayotida bir qator yirik tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ovchilik va terimchilik kabi tabiatga boqim hayotiy mashg‘ulotlar negizida ibtidoiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik yuzaga kelib, kishilik tarixida ilk bor dastlabki ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarga asos solindi.

10-Mavzu O‘zbekistonda arxeologik va xalqaro arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish tartibi.

O‘zbekistonning mustaqilligi davrida arxeologiya fanining rivojlanishi. Kashfiyotlar va yutuqlar. Xalqaro ekpeditsiyalar faoliyati. Xalqaro arxeologik shartnoma tuzishning ilmiy asosi. Xalqaro ilmiy shartnomaning asosiy bandlari. Xalqaro arxeologik ilmiy shartnoma bandlari YUNESKOning xalqaro ilmiy shartnomalar talablariga to‘liq javob berishi shart. Jumladan, arxeologik topilmalarning tadqiqot o‘tkazilayotgan mamlakat hududida qolishi, ilmiy maqolalarning uch tilda (shartnoma tuzayotgan ikki davlat tili va ingliz tili) chop etilishi, ekspeditsiya so‘nggida xalqaro konferensiya (seminar, kollokvium) o‘tkazilishi va ekspeditsiyaning asosiy ilmiy yutuqlarini jahon ommasiga yetkazish.

11-Mavzu Turkistonda dastlabki arxeologik tadqiqotlar va mahalliy o’lkashunoslarning arxeologiya sohasidagi harakatlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashi “O‘zbekistonda tarixiy - arxeologik yodgorliklarni saqlash” bo‘yicha qonunning qabul qilinishi. Qonunning moddalari bilan talabalarni tanishtirish.O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish qoidalari. “Ruxsatnoma” (Otkritiy list) olish tartibi. Arxeologik tadqiqot o‘tkazish tartib va qoidalari.

12-Mavzu Mustaqillik yillarida arxeologiya fanining rivojlanishi.

O'zbekiston tarixi misolida aytadigan bo'lsak, mil.av. VI asrgacha bo'lgan davr 100 % arxeologik manbalar asosida yaratilgan. Undan keyingi davrlarda Ahamoniy, Ellin, Kushon, Turk xoqonligi, Arablar davrini o'rganish bo'yicha ham yozma manbalar juda kam va arxeologiyaning o'rni balanddir.

1859 yilga kelib Rossiyaning asosiy arxeologik markazi-arxeologik komissiya tashkil etiladi. 1889 yildan boshlab u mamlakat hududida o'tkazilayotgan arxeologik qazishmalarni to'g'ri, yoki noto'g'ri o'tkazilayotganligini kontrol kilish huquqini oladi.

13-Mavzu SamDU tarix fakulteti Arxeologiya muzeyi fondi asosida arxeologik ashyolarni davrlashtirish va xronologiyasi

O'zbek milliy arxeologiya maktabi fanining maqsadi yurtimiz hududida arxeologiya fanining rivojlanishi yutuqlari va yurtimiz hududida olib borilgan Arxeologik tatqiqotlarni o'rganish. Dastlabki arxeologiya Maktabining Shakllanishi. Havaskor arxeologlar to'garagi faoliyati bilan tanishish. XIX-XX asr boshlarida olib borilgan arxeologik tatqiqotlar.Mustaqillik yillarida xalqaro qo'shma ekspeditsiyalar yordamida arxeologik manzilgoh va yodgorliklarida olib borilgan tatqiqotlar.Abu Toxirxo'ja Samarqandiyning qalamiga mansub bo'lgan "Samariya" asarini 1899 yilda N.I.Veselovskiy tomonidan fors tilida, 1904 yilda V.L.Vyatkin tomonidan rus tilida nashr qilinishiga sababchi bo'lgan ham Abu Sayd Maxsum bo'ladi.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Kirish. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

O'zbekistonda Arxeologiya fanining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

Arxeologiyaning tarmoq fanlari

Arxeologiyada aniq fanlar

Arxeologiyada tabiiy fanlar

Arxeologiyada texnologik kashfiyotlar

Arxeologik yodgorliklar va ularning tarixni o'rganishdagi ahamiyati

O'rta Osiyo xalqlari paliolit va mezolit davri moddiy madaniyati evolyusiyasi haqida umumiy tushuncha

O'rta Osiyo xalqlari neolit va eneolit davri moddiy madaniyati evolyusiyasi haqida umumiy tushuncha

O‘rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyati evolyusiyasi haqida umumiy tushuncha

Turkistonda dastlabki arxeologik tadqiqotlar va mahalliy o’lkashunoslarning arxeologiya sohasidagi harakatlari o‘tkazish tartibi.

Mustaqillik yillarida arxeologiya fanining rivojlanishi.

SamDU tarix fakulteti Arxeologiya muzeyi fondi asosida arxeologik ashyolarni davrlashtirish va xronologiyasi

IV. Mustaqil ta’lim mavzulari

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Kirish. Fan predmeti, maqsad, vazifasi, manbalari
2. Yevropada arxeologiya fanining fan sifatida vujudga kelishi
3. O’rta Oisyoda arxeologiya fanining fan sifatida vujudga kelishi
4. O’zbekiston hududida o’rganigan yodgorliklarning davrlash va xronologiyasi masalasida muammolar.
5. O’zbekiston Arxeologiya fanining 1917-yilgacha bo’lgan davrda rivojlanishi va erishgan yutuqlari.
6. Y.G’ulomovning ilmiy merosi va arxeologiya sohasidagi faoliyati.
7. A.Asqarov arxeologiya sohasidagi faoliyati.
8. M.Juraqulov arxeologiya sohasidagi faoliyati.
9. N.Avanesova arxeologiya sohasidagi faoliyati.
10. O’tkir Islomovning arxeologiya sohasidagi faoliyati.
11. O’zbekistonda Arxeologik qidiruv va arxeologik qazuv ishlari.
12. Mustaqillik davri arxeologiyasi.
13. Arxeologiyada xalqaro ilmiy hamkorlik.
14. Arxeologik ekspeditsiyalar faoliyati.
15. O’zbekiston Respublikasi FA Milliy arxeologiya markazi faoliyati.
16. V.V.Bartold xizmatlari.
17. Turkistondagi ilmiy jamiyatlar.
18. Yodgorliklarni sanalarini aniqlash usullari.
19. Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish to’g’risidagi qonun.
20. Zarafshon vohasi arxeologik yodgorliklarni o’rganilishi.
21. Toshkent vohasi arxeologik yodgorliklarni o’rganilishi.
22. Surxandaryo vohasi arxeologik yodgorliklarni o’rganilishi.

“Arxeologiyaga kirish” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, O‘rta Osiyo miqiyosida dastlabki tuzilgan arxeologik ekspeditsiyalari tarixiga oid mavzuda ЮТАКЕ, ХАЭЭ, КАТЭ, Termiz va boshqa arxeologik ekspeditsiyalar tarixi haqida talabada bilim ko‘nikmasini shakllantirish e’tiborga olingan. Ma’lumki, arxeologlar yodgorliklarni qazib o‘rganish jarayonida turli-tuman manbalarga duch keladilar. Bu manbalardan ilmiy foydalanish uchun arxeologlar birinchi navbatda, topilmalarni avaylab yerdan olish, uni qotirish (konservatsiya) va qayta

	ta'mirlash (restavratsiya) hamda boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Arxeologik topilmalarni qazib olish va ularga ishlov berish usullari bilan talabalarni tanishtirish bu maxsus kursning asosiy vazifasidir. Bu usul maxsus laboratoriyalar tomonidan ishlab chiqiladi va doimo takkomillashib bormoqda. Talabalar bu maxsus kurs davomida olgan bilimlarini kurs ishi yozish davomida mustahkamlab boradilar. Ular chizmalar chizish, topilmalarni ta'riflash, kartochkalar tayyorlash, ilmiy adabiyotlardan ko'chirma olish usullari bilan tanishib o'zlarining mustaqil ishlarida ulardan amalda foydalanadilar. Hozirgi kunda O'zbekiston arxeologiyasi qo'lga kiritayotgan kashfiyot, yutuqlar borasida mukammal bilim berish, bunda xorijning yirik ilmiy markazlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalariga tayanish ko'zda tutiladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Mamlakat hududida arxeologiya sohasini rovojlanishi va yurtimiz tarixini arxeologik manbalar asosida yoritib berish to'g'risida tegishli ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • tarixiy voqea va hodisalar natijalarini qiyosiy taqqoslash orqali ulardan xulosalar chiqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • tarixiy voqealar va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga va munosabat bildira olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Talabalarning tarixiy fanlarni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or usullari foydalanish, yangi informatsion - pyedagogik tyexnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ma'ruza matnlari, tarqatma matyeriallar, elyektron matyeriallar, virtual styendlar jadvallardan foydalaniladi. • Dasturda byerilgan mavzular ma'ruza, syeminar shaklida olib boriladi. Shuningdyek fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun byeriladi. Fan zamonaviy pyedagogik tyexnologiyaning «bumyerang», «aqliy hujum» singari uslublari orqali darslar olib boriladi. • Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan: • Zamonaviy interfaol metodlari, Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, algoritm munozara, o'z-o'zini nazorat. "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Rezyume", "Blis-o'yin", FSMU, "Agar men...", "Muammo", 3x4, "Loyiha", "Labirint", "Charxpalak", 3 ta B, "Qora quti", "Insert", "Burchaklar", "5-si ortiqcha", "Kali so'zlar", "Skrabey", "Sinkveyn" (Internet resurslari, slaydlar), ko'rgazmali vositalar (xaritalar, jadvalar, sxemalar va bosh.) pedagogik texnologiyalarini kullash nazarda tutiladi.
5.	**VII. Asosiy adabiyotlar:** **1.** Avdusin D.A. Osnovi arxeologii. M., «Vishshaya shkola» 1989.

	2. O'rta Osiyo arxeologiyasi:Tosh asri, Xolmatov N.O'.2020 3. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Djurakulova D.M. 2020 4. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T., 2011. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannaya gorodskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana.Samarkand, 1993. 2. Avanesova N.A. Epoxa bronzi Sredney Azii. Ch.I. Uchebnoye posobiye. Samarkand. Izd. SamGU. 1988. Pdf 3. Beleniskiy A.M. Bentovich I.B, Bolshakov O.G. Srednevekoviy gorod Sredney Azii. L. 1973. 4. Djurakulov M.D. Avanesova N.A. Istoriografiya epoxi bronzi Sredney Azii. Uchebnoye posobiye. Samarkand: Izd.SamGU. 1983. pdf. 5. Drevneyshiye gosudarstva Kavkaza i Srednyaya Aziya. Otv. red. G.A. Koshelenko. M., "Nauka" 1985. 6. Lunina S.B. Arxeologiya Sredney Azii. Uchebnoye posobiye. Tashkent. 1986. pdf. 7. Rыndina N., Degtyareva A. Eneolit i bronzoviy vek. Uchebnoye posobiye. M. 2002. Djvu 8. Srednyaya Aziya i Dalniy Vostok v epoxu srednevekovya. Srednyaya Aziya v rannem srednevekovye. Otv. red. G.L. Brikina. M., «Nauka» 1999. **Axborot manbalari (saytlar):** www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. www. senat. uz www. stability.uz. www. search. uz/eng.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2023-yil "30.08" dagi " 1 "- son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: U.Umarov "Arxeologiya" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** Ergashev.O.T – SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi tarix fanlari doktori, dotsent. (ichki) Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti K.I.X A.Sandiboyev (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O'.

Kafedra mudiri: **O.T. Ergashov**

Kengash raisi: **D.M.Djuraqulova**

O`quv ishlari bo`yicha prorektor: **A.S.Soleyev.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Arxeologiyaga kirish" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Arxeologiyaga kirish" fani tanlov fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O`quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Arxeologiyaga kirish fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur fan dasturi "Arxeologiyaga kirish" tanlov fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun

mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturi "Arxeologiyaga kirish" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

"Arxeologiyaga kirish" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti

Arxeologiya kafedrasi professori: N.O'.Xolmatov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "dasturi "Arxeologiyaga kirish" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Arxeologiyaga kirish fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzini ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Arxeologiyaga kirish" fani fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar

hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.
Mazkur fan dasturi "Arxeologiyaga kirish" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida "Arxeologiyaga kirish" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilagan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Arxeologiyaga kirish" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tanlov fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Madaniy meros agentligi Y.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori:

Tarix fanlari n

J.K.Mirzaahmedov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G'ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI KADRLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G'ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI
ASLIGA TO'G'RI